

## YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISHNING AMALDAGI MEKANIZMI TANQIDIY TAHLILI

**Yakubov San'atbek Ravshanbekovich**

*Ma'mun universiteti, iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi*

yakubov\_sanatbek@mamunedu.uz

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlik (YaTT) faoliyatini soliqqa tortishning amaldagi mexanizmi tanqidiy tahlil qilingan. Tadqiqotda qonunchilikdagi evolyutsion o'zgarishlar, soddalashtirilgan soliq tizimi, patent to'lovlari va raqamlashtirilgan ma'muriy yechimlar qamrab olingan. Soliq tizimining ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri — aholi bandligini oshirish, norasmiy iqtisodiyot ulushini kamaytirish va davlat budjeti barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan baholangan. Tahlil natijalari amaldagi tizimning afzalliklari bilan birga kamchiliklarini ham ochib berib, kelgusidagi islohotlar uchun ilmiy asos yaratadi.

**Kalit so'zlar:** yakka tartibdagi tadbirkorlik, mikrobiznes, soliq mexanizmi, umumbelgilangan soliqqa tortish, soddalashtirilgan soliq, fiskal barqarorlik, norasmiy iqtisodiyot.

## КРИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДЕЙСТВУЮЩЕГО МЕХАНИЗМА НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

**Якубов Санъатбек Равшанбекович**

*Старший преподаватель кафедры экономики университета Мамуна*

yakubov\_sanatbek@mamunedu.uz

**Аннотация:** В статье критически проанализирован действующий механизм налогообложения деятельности индивидуальных предпринимателей (ИП) в Узбекистане. В исследовании рассмотрены эволюционные изменения в законодательстве, упрощённая система налогообложения, патентные платежи и цифровые административные решения. Социально-экономическое воздействие налоговой системы оценено с точки зрения повышения занятости населения, сокращения доли неформальной экономики и обеспечения стабильности государственного бюджета. Результаты анализа выявляют как преимущества, так и недостатки существующей системы, создавая научную основу для будущих реформ.

**Ключевые слова:** индивидуальное предпринимательство, микробизнес, налоговый механизм, общее налогообложение, упрощенный налог, фискальная устойчивость, неформальная экономика.

## CRITICAL ANALYSIS OF THE CURRENT TAXATION MECHANISM OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURSHIP

**Yakubov San'atbek Ravshanbekovich**

*Senior Lecturer, Department of Economics, Mamun University*

yakubov\_sanatbek@mamunedu.uz

**Abstract:** This article provides a critical analysis of the current taxation mechanism of individual entrepreneurship in Uzbekistan. The study examines legislative developments, the simplified tax system, patent fees, and digital administrative solutions. The socio-economic impact of the tax system is assessed in terms of increasing employment, reducing the share of the informal economy, and ensuring the stability of the state budget. The results of the analysis reveal both the advantages and shortcomings of the existing system, thereby providing a scientific basis for future reforms.

**Keywords:** *Individual entrepreneurship, microbusiness, tax mechanism, general taxation, simplified tax, fiscal sustainability, informal economy.*

### KIRISH

Hozirgi zamon iqtisodiyotida yakka tartibdagi tadbirkorlik (YaTT) faoliyati aholi bandligini ta'minlash, mikrobiznes va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, shuningdek, norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi bilan birga, YaTTlar faoliyatini huquqiy va institutsional jihatdan tartibga solish hamda ularning soliq tizimi orqali boshqarish mexanizmlarini yaratish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib keldi.

Shu bilan birga, amalda qo'llanilayotgan soliq mexanizmi bir qator ijobiy jihatlari bilan birga, tanqidiy tahlilni taqozo etuvchi muammolarni ham namoyon qilmoqda. Bir tomondan, soddalashtirilgan soliq rejimlari, patent tizimi va yagona to'lovlar YaTTlar uchun qulay sharoit yaratib, ularning rasmiy iqtisodiyotga kirib kelishini rag'batlantirmoqda. Ikkinchi tomondan esa, amaldagi mexanizmada adolat va mutanosiblik tamoyillarining to'liq ta'minlanmagani, ayrim hollarda soliq yukining turli segmentlar o'rtasida nomutanosib taqsimlanishi, raqamlashtirish jarayonining hali yetarli darajada qamrab olmagan hamda ma'muriy nazoratdagi bo'shliqlar muayyan cheklovlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki,

tadbirkorlarni soliqqa tortishda ikki mezon muhim [1]: soddalik va adolat. Soddalik tizimning tushunarli va amaliy bo'lishini ta'minlasa, adolat soliq yukining daromad darajasiga mutanosib taqsimlanishini belgilaydi. O'zbekiston sharoitida ham ushbu mezonlar amalda to'liq ta'minlanmaganligi ba'zi tadbirkorlarning hali ham norasmiy faoliyatda qolishiga olib kelmoqda. Shu bois, amaldagi soliq mexanizmini tanqidiy tahlil qilish orqali uning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat mezonlari asosida takomillashtirish yo'llarini belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlikni soliqqa tortishning amaldagi mexanizmi chuqur tahlil qilinadi, xalqaro tajribalar bilan qiyoslab baholanadi va uni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

O'zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlik (YaTT)ni soliqqa tortish amaliyoti mustaqillikdan buyon qator islohotlar orqali shakllanib kelmoqda. Ilk bosqichlarda YaTTlar umumiy soliq rejimlari asosida faoliyat yuritgan bo'lib, bu ular uchun ortiqcha ma'muriy to'siqlar va yuqori soliq yukini keltirib chiqargan [2] Keyinchalik soliq tizimini soddalashtirish, patent va yagona to'lov tizimini joriy qilish ularning rasmiy iqtisodiyotga integratsiyasini rag'batlantirgani mahalliy tadqiqotlarda qayd etilgan [3].

O'zbekiston qonunchiligida 2000-yillardan boshlab kichik biznes va YaTTlar uchun soddalashtirilgan soliq rejimlari keng qo'llana boshladi. Masalan, "Soliq kodeksi"ning yangi tahrirlari YaTTlarning huquqiy maqomini, patent asosida soliq to'lash mexanizmlarini va hisobot yuritish tartibini aniq belgilab berdi [4]. Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham YaTTlar faoliyatini soliqqa tortish amaldagi mexanizmlari tanqidiy tahlil qilingan. Jumaniyozov tadqiqotida patent va soddalashtirilgan to'lov tizimi kichik tadbirkorlikni qonuniylashtirishda ijobiy samara bergani, ammo daromad darajalariga mutanosiblik prinsipi to'liq ta'minlanmaganini qayd etgan [5]. Shu bilan birga, Axmedov raqamlashtirilgan soliq ma'murchiligini joriy qilish, onlayn deklaratsiya tizimlari va soliq organlari bilan munosabatlarni soddalashtirish amaldagi mexanizmdagi samaradorlikni oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi [6]. YaTTlar uchun amaldagi soliq mexanizmining ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlari ham tadqiqotlarda yoritilgan. Masalan, Xoliqovning fikriga ko'ra, soddalashtirilgan soliq tizimi aholi bandligini oshirish va norasmiy sektorni qisqartirishga hissa qo'shgan, ammo ayrim hollarda ma'muriy nazoratning zaifligi va raqamli yechimlarning yetarlicha qamrab olmagan tizim samaradorligini cheklab qo'yimoqda [7]. Shu tariqa, mahalliy adabiyotlarda YaTTlarni soliqqa tortishning amaldagi mexanizmidagi afzalliklar (soddalik, patent tizimi, ma'muriy yukning kamayishi) bilan birga, kamchiliklar (adolat prinsipining to'liq ta'minlanmagani, raqamli infratuzilmaning to'liq ishga tushmagani, nazoratning yetarli emasligi) ham keng yoritilmoqda. Bu esa kelgusida

solliq mexanizmlarini takomillashtirishda fundamental va institutsional islohotlarning dolzarbligini ko'rsatadi.

## **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotda YaTT faoliyatini solliqqa tortishning amaldagi mexanizmlarini chuqur tahlil qilish va uni takomillashtirish yo'nalishlarini asoslab berishga qaratilgan. Tadqiqotda nazariy asoslar, qonunchilik hujjatlari va amaliyotdagi holatlar kompleks tarzda o'rganiladi. Birinchidan, tarixiy-qonuniy tahlil orqali YaTTlarni solliqqa tortish mexanizmlarining rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida qo'llanilgan umumiy rejimdan boshlab, keyingi bosqichlarda joriy etilgan soddalashtirilgan solliq tizimi, patent to'lovlari va hozirgi raqamlashtirilgan mexanizmlar mazmun jihatidan o'rganiladi. Ikkinchidan, taqqoslama tahlil orqali mahalliy amaliyot xalqaro tajribalar, xususan, Germaniya, Fransiya, Braziliya, Meksika modellari bilan qiyoslanadi. Turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan soddalashtirilgan rejimlar, raqamli hisobot tizimlari va ijtimoiy himoya bilan uyg'unlashgan solliq mexanizmlari tahlil qilinib, ularning O'zbekiston sharoitidagi qo'llanish imkoniyatlari o'rganiladi. Uchinchidan, sifatli tahlil usuli orqali davlat organlari hisobotlari, mahalliy olimlarning ilmiy ishlanmalari va xalqaro tashkilotlar tavsiyalari tahlil qilinadi. Bu jarayonda YaTTlarni solliqqa tortish mexanizmlari aholi bandligi, davlat byudjeti barqarorligi va norasmiy sektorga ta'sir nuqtai nazaridan baholanadi. Tadqiqotning asosiy vazifasi amaldagi mexanizmdagi muammo va bo'shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan fundamental, institutsional va ma'muriy islohotlar yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iboratdir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

YaTT faoliyatini solliqqa tortish mexanizmini umumbelgilangan solliqqa tortish tartibi bilan uyg'unlashtirish maqsadida 2018-yilda qabul qilingan solliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi [8] hamda 2020-yil kuchga kirgan yangi tahrirdagi Solliq kodeksiga asosan ularni solliqqa tortish tartiblarini belgilashda jami yillik daromadi chegarasi bo'yicha bir qator yangi qoidalar kiritildi. Bu YaTTlarni solliqqa tortish mexanizmini yuridik shaxslarni solliqqa tortishni nazarda tutuvchi solliqqa tortish tartiblari bilan muvofiqlashtirish imkonini berdi. Yangi tartibga ko'ra YaTTlarning faoliyatini solliqqa tortishda ularning jami yillik daromad miqdori asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Bu yondashuv solliq siyosatini darajalab borish va kichik biznesga nisbatan maqsadli fiskal siyosat yuritishga xizmat qiladi.

1-rasmda YaTTlarni solliqqa tortishning amaldagi mexanizmi orqali belgilangan tartiblari umumlashtirilgan bo'lib, unga asosn agar YaTTning jami yillik daromadi 100 mln. so'mgacha bo'lsa, u holda subyekt faqat daromad solig'i (DS) to'lashi mumkin. Bunda solliq to'lovchi daromad solig'ini hisoblash va to'lashning ikki asosiy tartibidan

birini tanlash huquqiga ega bo'lib, bular jami yillik daromadlaridan deklaratsiya asosida 12 foiz stavkada va qat'iy belgilangan soliq (QBS). Deklaratsiya asosida soliq to'lash tartibini tanlagan YaTTlar hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay taqdim etishi va keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay soliq to'lovini amalga oshirishi belgilangan. Qat'iy belgilangan soliq (QBS) to'lash tartibini tanlagan sub'ektlar, faoliyat turi va joyidan kelib chiqib qat'iy belgilangan summada har oyda soliq to'lovini amalga oshirishi belgilangan.

Xususan, 2020–2024-yillar davomida qat'iy belgilangan soliq (QBS) stavkalaridagi o'zgarishlar soliq siyosatining tadbirkorlikni tartibga solishdagi dinamikasini va inflyasion omillarga moslashuvini ifodalaydi. Ushbu yillar ichida QBS stavkalarida bir necha bosqichli o'sish qayd etilgan bo'lib, bunda asosiy yondashuv inflyasiya darajasini hisobga olgan holda soliq yukini barqaror saqlashga qaratilgan. 2020-yildan 2022-yilgacha QBS stavkalari barqaror holda saqlanib, asosiy faoliyat turlari bo'yicha oylik soliq miqdori o'zgarmagan. Bu davrda davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida inflyasiyani hisobga olgan holda soliq stavkalari moslashtirilmaganligini ko'rish mumkin.


Biroq, 2023-yildan boshlab, soliq stavkasiga 1.1 koeffitsient asosida indeksatsiya qilish tartibi joriy etildi. Bu qoidaga asosan, har bir faoliyat turi uchun belgilangan QBS miqdori 10 foizga oshirildi. Masalan, chakana savdoda oziq-nooziq ovqat tovarlari uchun Toshkent shahrida QBS oylik stavkasi 750 ming so'mdan 825 ming so'mga ko'tarildi. Shu tarzda, boshqa hududlar uchun ham mos ravishda indeksatsiya amalga oshirildi: Nukus va viloyat markazlari uchun 600 ming so'mdan 660 ming so'mga, boshqa shaharlarda 300 ming so'mdan 330 ming so'mga va aholi punktlarida 200 ming so'mdan 220 ming so'mgacha o'sish kuzatildi. Bu yondashuv orqali QBSning haqiqiy qiymatini inflyatsiyaga mos ravishda saqlashga harakat qilingan [9].

2025-yildan QBS stavkasi tuzilmasida bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Jadvaldan ko'rish mumkinki, eng yuqori stavkalar Toshkent shahri uchun belgilangan bo'lib, masalan, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo uchun oylik soliq 700 ming so'mdan 1 million so'mgacha bo'lishi mumkin. Nukus shahri va viloyat markazlarida ushbu faoliyat uchun 265 mingdan 800 ming so'mgacha, boshqa shaharlarda va aholi punktlarida esa nisbatan kamroq miqdorda belgilanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan dehqon bozorlarida savdo qilish, gazetalar va kitoblar bilan savdo, maishiy xizmatlar hamda boshqa faoliyat turlari uchun esa oylik qat'iy soliq Toshkentda 230 mingdan 330 ming so'mgacha, boshqa hududlarda 65 mingdan 200 ming so'mgacha etib belgilangan. Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlarida ham mashinaning yuk ko'tarish quvvatiga qarab oylik soliq 200 ming yoki 300 ming so'm qilib belgilangan [10].

## YaTTni soliqqa tortishning amaldagi mexanizmi

1

### YaTTni soliqqa tortish tartiblari



#### Izoh:

1. DS – daromad solig'i. 2. QBS – Qat'iy belgilangan soliq. 3. FS/QQS – Foyda solig'i va QQS |
4. AOS - Aylanamadan olinadigan.

### 1-rasm. O'zbekistonda amalda bo'lgan YaTT soliqqa tortish mexanizmi<sup>1</sup>

Jami yillik daromadi 100 mln. so'mdan 1 mlrd. so'mgacha bo'lgan holatda, YaTTning ikki soliq turidan birini tanlash huquqi mavjud. Bular maxsus rejim solig'i, ya'ni aylanmadan olinadigan soliq (AOS) yoki uning o'rniga umumbelgilangan rejim solig'i hisoblanadigan foyda solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i (FS/QQS). Agar YaTT AOS tanlasa ushbu soliqni to'lashni ikki usulidan birini tanlashi mumkin. Birinchi usul jami daromaddan kelib chiqib bazaviy 4 foizli stavkada hisobot davridan keyingi oying 15 sanasidan kechiktirmasdan hisobot topshirish va to'lashni nazarda tutadi. Ikkinchi usulda AOSni qat'iy belgilangan miqdorlarda to'lashni nazarda tutadi. Bunda jami yillik daromadi 500 mln. so'mdan oshmagan soliq to'lovchilar 30 mln. 500

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksidan foydalanib muallif tomonidan shakllantirildi

mln. soʻmdan yuqori daromadga ega YaTTlar 40 mln. soʻm miqdorida toʻlashi belgilangan [4].

YaTTning jami yillik daromadi 1 mlrd. soʻmdan oshib ketgan taqdirda, ular uchun faqat umumiy tartibdagi va soddalashtirilgan tartibda foyda soligʻi va QQS toʻlash majburiyati boʻladi. Bu esa, aslida, katta aylanmaga ega boʻlgan subyektlarni yuridik shaxslarga oʻtish yoki soliq yukini adolatli tarzda koʻtarishga majbur etuvchi mexanizmdir. Yangi Soliq kodeksida ushbu yondashuv bilan tenglik va shaffoflikni taʼminlash, soliq bazasini kengaytirish va YaTTlar orqali daromadni yashirish holatlarining oldini olish maqsad qilingan.

YaTT tadbirkorlar tomonidan toʻlanishi lozim boʻlgan yana bir soliq ijtimoiy soliq boʻlib, amaldagi qonunchilikda belgilangan normalar quyidagi jadvalda umumlashtirilgan. Jadval maʼlumotlari va soliq kodeksining tegishli normasining tahlili Oʻzbekistondagi soliq siyosatining muhim boʻgʻini sifatida yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) va ular tomonidan yollangan jismoniy shaxslar hamda oilaviy tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq toʻlash mexanizmlari muayyan huquqiy asoslarga tayangan holda amalga oshirilayotganligini koʻrsatadi. Mazkur toifalarning soliq yukini belgilashda ish kunlarining sonidan qatʼi nazar, belgilangan eng kam miqdordagi soliq toʻlash majburiyati qoʻllaniladi. Xususan, YaTTlar hamda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyat yurituvchi oila aʼzolari oylik soliq toʻlovini BHMning kamida bir baravari miqdorida amalga oshirishlari shart. Shu bilan birga, oilaviy tadbirkorlikda ishtirok etuvchi boshqa oila aʼzolari uchun soliq miqdori BHMning 50 foizi etib belgilangan.


### 1-jadval

#### YaTT faoliyati uchun ijtimoiy soliq stavkalari va toʻlish muddati<sup>2</sup>

| Soliq toʻlovchi toifasi  | Soliq stavkasi                    | Hisobot yoki toʻlov muddati                |
|--|-----------------------------------|--|
| Yakka tartibdagi tadbirkor (YaTT)  | Oyiga BHMning 1 baravari          | Har oyning 15-kuniga qadar                 |
| YaTT sifatida roʻyxatdan oʻtgan oila aʼzosi  | Oyiga BHMning 1 baravari          | Har oyning 15-kuniga qadar                 |
| Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlikda ishtirok etuvchi boshqa oila aʼzolari | Oyiga BHMning 50%                 | Hisobot yili yakunigacha (31 dekabr qadar) |
| Yoshga doir pensiya yoki nafaqa oluvchi «Hunarmand» aʼzosi                                       | Soliqdan ozod etilgan             | Yoʻq                                       |
| Yoshga doir pensiyaga haqli shaxslar, I va II guruh nogironligi bor shaxslar                     | Soliqning eng kam miqdorining 50% | 31 dekabr qadar                            |

<sup>2</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksidan foydalanib muallif tomonidan shakllantirildi

Mamlakatimizda, 2019-yil 1-sentyabrdan boshlab ish haqining eng kam miqdori o'rniga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori, bazaviy hisoblash miqdori, pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori joriy etildi [11]. Bu orqali mehnatga haq to'lash miqdorlarini aniqlash tartibi takomillashtirildi hamda mehnatga haq to'lash, pensiyalar tayinlash hamda soliqlar, davlat bojlari, jarimalar, yig'imlar va boshqa to'lovlarni undirish o'rtasidagi shartlarning bog'liqligi bartaraf etildi.



**1-grafik. Bazaviy hisoblash miqdorining 2012-2025-yillar kesimida dinamikasi<sup>3</sup>**

Shuningdek, YaTT bilan mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan jismoniy shaxslar uchun esa majburiy ijtimoiy soliq to'lash majburiyati bevosita ularni ishga olgan tadbirkor zimmasiga yuklatiladi. Bu mexanizm mehnat stajini hisoblashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, jismoniy shaxslar tomonidan pensiya ta'minoti tizimiga qo'shilish imkonini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, soliq majburiyatining tegishli xodim uchun tadbirkor tomonidan o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirilishi juda muhim hisoblanadi.

YaTT faoliyatini soliqqa tortish mexanizmi samaradorligini baholashda avvalambor mamlakatdagi bandlik va norasmiy bandlik holatini tahlil qilish va YaTTning bundagi o'rnin baholash muhim hisoblanadi.

2-jadvaldan ko'rish mumkinki, 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) soni va ularning faoliyat turlari, hududlar hamda soliq turlari kesimidagi o'zgarishlari mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy siyosat, soliq yukini qayta tartibga solish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan choralar bilan uzviy bog'liqdir. Respublika bo'yicha YaTTlar soni 2020-yilda 219 112 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 283 866 nafarga yoki 129.5 foizga

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga asoslanib muallif tomonidan shakllantirildi

yetgan. Bu o'sish mamlakatda xususiy sektorga, ayniqsa mikrobiznes va xususiy tadbirkorlik faoliyat turlariga berilgan e'tibor va rag'bat natijasidir. Hududlar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, barcha viloyatlarda YaTTLar soni ortib borgan. Eng katta o'sish Toshkent shahri (22 866 nafardan → 38 729 nafargacha yoki 169.4 foiz), Samarqand viloyati (28 729 nafardan → 30 454 nafardagacha yoki 106 foiz), Farg'ona (23 623 nafardan → 27 332 nafargacha yoki 115.7 foiz) va Andijon viloyatlarida (16 637 nafardan → 26 747 nafargacha yoki 160.8 foiz) qayd etilgan. Bu hududlarda aholi zichligi yuqori bo'lib, bozor infratuzilmasi va xizmatlarga bo'lgan talabning o'sishi, shuningdek davlat tomonidan biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari ta'sirida xususiy faoliyatga o'tish sur'ati yuqori bo'lgan. Navoiy, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm kabi viloyatlarda ham o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, u nisbatan sekin kechgan. Bu esa hududlar bo'yicha iqtisodiy imkoniyatlar, bozor talablari va tashabbuslar darajasining farqli ekanligini ko'rsatadi.

Faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda, chakana savdo doimo yetakchi pozitsiyani egallab kelgan bo'lib, 2020-yilda 107 639 nafarni tashkil etgan YaTTLar soni 2024-yilda 134 910 nafargacha yoki 125.3 foizga ko'paygan. Bu aholi iste'mol bozorida mahsulot aylanmasining o'sishi, o'zini o'zi band qilish imkoniyatlari va raqobat muhitining yaratilishi bilan izohlanadi. 2024-yil holatiga ko'ra, chakana savdo sohasidagi YaTTLar jami YaTTLarning 47.5%ini tashkil etgan. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasida ham jadal o'sish qayd etilgan: 2020-yilda 6 914 nafar bo'lgan YaTTLar soni 2024-yilda 29 453 nafarga yetgan bo'lib, bu jami YaTTLar sonining 10.4%ini tashkil etadi. Bu sektorda ishlab chiqarishsiz xizmat ko'rsatish imkoni borligi, maxsus bilim va kapital talab etmasligi uni ommalashishiga xizmat qilgan. Hunarmandchilik sohasida esa aksincha, 2020-yilga nisbatan 2024-yilda YaTTLar soni kamaygan (31 629 → 23 631), bu esa ehtimol, ushbu sohada raqobatning kuchayishi, qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishning zamonaviy bozor talablariga javob bermasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2024-yilda hunarmandchilik sohasidagi YaTTLar ulushi 8.3%ni tashkil etgan. «Boshqa faoliyat turlari» toifasi esa doimo o'sib borgan va 2024-yilda 95 872 nafarga yetgan bo'lib, bu jami YaTTLarning 33.8%iga tengdir.

## 2-jadval

### YaTTLarning hududlar, faoliyat turlari va soliq turlari kesimida taqsimoti<sup>4</sup>

|                          | 2020    | 2021    | 2022    | 2023    | 2024    |
|--------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Respublika bo'yicha jami | 219 112 | 217 207 | 238 188 | 240 744 | 283 866 |
| <b>Hududlar kesimida</b> |         |         |         |         |         |
| Qoraqolpog'iston         | 10 716  | 10 128  | 11 275  | 12 743  | 17 782  |
| Andijon                  | 16 637  | 16 637  | 17 549  | 17 575  | 26 747  |
| Buxoro                   | 15 940  | 15 556  | 16 624  | 16 673  | 17 608  |

<sup>4</sup> Davlat soliq qo'mitasi va milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

|                                  |         |         |         |         |         |
|----------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Jizzax                           | 8 145   | 7 906   | 8 627   | 8 631   | 9 581   |
| Qashqadaryo                      | 18 837  | 18 260  | 19 887  | 20 039  | 22 571  |
| Navoiy                           | 5 522   | 6 057   | 6 468   | 6 296   | 7 047   |
| Namangan                         | 16 726  | 15 200  | 16 308  | 14 723  | 19 377  |
| Samarqand                        | 28 729  | 25 293  | 28 618  | 27 441  | 30 454  |
| Surxondaryo                      | 12 955  | 13 450  | 14 912  | 14 094  | 16 618  |
| Sirdaryo                         | 5 571   | 5 626   | 6 408   | 6 582   | 7 502   |
| Toshkent vil.                    | 19 182  | 21 384  | 23 027  | 23 758  | 26 757  |
| Farg'ona                         | 23 623  | 21 940  | 24 272  | 23 525  | 27 332  |
| Xorazm                           | 13 663  | 13 204  | 15 061  | 14 642  | 15 761  |
| Toshkent sh.                     | 22 866  | 26 566  | 29 152  | 34 022  | 38 729  |
| <b>Faoliyat turlari kesimida</b> |         |         |         |         |         |
| Chakana savdo                    | 107 639 | 105 403 | 115 346 | 118 112 | 134 910 |
| Hunarmandchilik                  | 31 629  | 21 663  | 26 098  | 22 252  | 23 631  |
| Maishiy xizmat                   | 6 914   | 20 668  | 22 438  | 21 194  | 29 453  |
| Boshqa faoliyat turlari          | 72 930  | 69 473  | 74 306  | 79 186  | 95 872  |
| <b>Soliq turlari kesimida</b>    |         |         |         |         |         |
| QBS to'lovchi YaTTlar soni       | 181 540 | 179 962 | 198 047 | 194 982 | 235 380 |
| AOS to'lovchi YaTTlari soni      | 36 052  | 35 739  | 38 509  | 43 137  | 45 917  |
| FS va QQS to'lovchi YaTTlar soni | 1 520   | 1 506   | 1 632   | 2 625   | 2 569   |

Soliq turlari kesimida tahlil qilinganda, QBS (qat'iy belgilangan soliq) to'lovchi YaTTlar soni eng katta ulushni egallab kelgan. 2020-yilda 181 540 nafar bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda ularning soni 235 380 nafargacha yoki 129.7 foizga ko'paygan. Bu katta qism YaTTlar faoliyatining faqat QBS rejimida amalga oshirilishini va soliq ma'murchiligining soddalashtirilgan modellari tomon e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. 2024-yilda QBS to'lovchilar ulushi 82.9%ni tashkil etgan. Aylanmadan olinadigan soliq (AOS) to'lovchilar soni ham sezilarli o'sgan (2020-yilda 36 052 → 2024-yilda 45 917 yoki 127.4 foiz), bu esa aylanmasi yuqoriroq, lekin foydasi murakkab hisoblanadigan faoliyat turlarining ko'payganini anglatadi, ular ulushi 16.2%ni tashkil etgan. Eng kichik ulush foyda solig'i va QQS to'lovchilarga to'g'ri kelgan (1 520 → 2 569 yoki 169.0 foiz), bu esa bu toifadagi faoliyatning katta xajmli va yuridik yuklama jihatidan murakkab ekanligini bildiradi. Ularning ulushi 2024-yilda 0.9%ni tashkil etgan.

YaTTlarni soliqqa tortishning amaldagi mexanizmida jami yillik daromad hajmi asosida soliq usuli tanlanadi. Jumladan, 100 mln so'mdan kam bo'lgan YaTTlar uchun asosan QBS yoki jami tushumdan 12% stavkadagi deklaratsiyali soliq to'lash amaliyoti mavjud. 100 mln so'mdan 1 mlrd so'mgacha bo'lganlar uchun esa QBS, AOS, yoki foyda solig'i va QQS asosida to'lovlar joriy etiladi. 1 mlrd so'mdan yuqori daromadga

ega bo'lganlar to'liq yuridik shaxs sifatida soliq yukini ko'tarishi lozim bo'ladi. Bu tizim soliq tizimini faoliyat masshtabidan kelib chiqib fleksibel boshqarish imkonini yaratadi.

Shuningdek, 2023-yildan QBS stavkalariga inflyatsion indeksatsiya koeffitsienti (1.1) joriy etilib, har yili stavkalar mos ravishda oshirib borildi. Xususan, Toshkent shahrida chakana savdo sohasida QBS oylik stavkasi 2022-yilda 750 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 825 ming so'm va 2024-yilda 908 ming so'mgacha oshirilgan. Bu esa YaTTlar faoliyatidan davlat budjetiga tushumlarni real qiymatda saqlashni maqsad qilgan soliq siyosatini ko'rsatadi.

Umuman, 2020–2024-yillarda YaTTlar sonidagi o'sish, hududlar va faoliyat turlari kesimidagi kengayish, soliq turlari orqali diversifikatsiyaning oshishi, inflyatsiyani hisobga olgan holda QBS stavkalarini indeksatsiya qilish mamlakatda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, norasmiy faoliyatni rasmiylashtirish va mikroiqtisodiyotni rag'batlantirishga qaratilgan islohotlar samarasi ekanligini ko'rsatadi. Bu jarayonlar O'zbekistonda ijtimoiy adolatni ta'minlash, ish bilan bandlik darajasini oshirish va soliq-budjet tizimi barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

## XULOSA

O'zbekistonda YaTTlarni soliqqa tortish mexanizmi bosqichma-bosqich takomillashib kelayotgan bo'lsa-da, hali to'liq hal etilmagan muammolar mavjud. Tanqidiy tahlil shuni ko'rsatadiki, amaldagi mexanizmning asosiy afzalliklari — soddalik, patent asosida to'lov qilish imkoniyati va ma'muriy yuklarning kamayishi hisoblanadi. Biroq adolat va mutanosiblik prinsiplarining to'liq ta'minlanmagan, raqamli platformalarning yetarlicha joriy etilmagan hamda nazorat tizimining samarasizligi kabi muammolar tizim samaradorligini cheklab qo'ymoqda.

Taklif sifatida quyidagilar ishlab chiqildi:

- soliq mexanizmlarini daromad darajasiga mutanosib ravishda qayta ko'rib chiqish orqali ijtimoiy adolatni ta'minlash zarur.

- Shu bilan birga, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun raqamlashtirilgan deklaratsiya va hisobot tizimlarini to'liq joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

- Soliq ma'murchiligini soddalashtirish bilan bir qatorda nazorat mexanizmlarini ham shaffoflashtirish lozim.

- Bundan tashqari, YaTTlarni ijtimoiy himoya tizimiga kengroq integratsiya qilish ularning rasmiy iqtisodiyotga to'liq jalb etilishiga xizmat qiladi.

- Demak, amaldagi soliq mexanizmlari yanada takomillashtirilsa, mamlakatda tadbirkorlik muhitining barqaror rivojlanishi, aholi bandligining oshishi va davlat budjeti barqarorligining ta'minlanishiga keng imkoniyat yaratiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. <https://scholarship.law.wm.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=3001&context=wmlr>
2. Qodirov, D. (2018). Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning institutsional muammolari. Toshkent moliya instituti ilmiy axborotnomasi, 4(3), 74–82.
3. Tursunov, S. (2020). Soddalashtirilgan soliqlar tizimining samaradorligi va uni takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisodiy tahlil jurnali, 27(5), 33–41.
4. <https://lex.uz/uz/docs/-4674902>.
5. Jumaniyozov, A. (2019). Soliq tizimini soddalashtirishning kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatiga ta’siri. O‘zbekiston moliya jurnali, 6(1), 55–63.
6. Ahmedov, B. (2021). Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliq ma’murchiligini raqamlashtirish orqali boshqarishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 5(2), 112–120.
7. Xoliqov, M. (2022). Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish tizimi va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaralari. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2(7), 88–97.
8. <https://lex.uz/docs/3802378>.
9. <https://lex.uz/docs/6333246>.
10. <https://lex.uz/docs/7279923>.
11. <https://lex.uz/docs/4346118>.